O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-DEKABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# <u>Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi</u>

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar korxonalari tomonidan 107,3 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,5 %)ni  hamda ishlab chiqarish hajmi 88,5 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## <u>Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI*</u> *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 6,3 % ga o‘sishi kuzatildi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 39,0 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 3,8 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 5,1 % ga  pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,0 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,0 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*







**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati** | **Tabiiy gaz**







**Neft** | **Shag‘al** | **Chaqiq tosh**









## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 642,4 | 663,0 | 20,6 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 36 077,7 | 35 246,5 | -831,2 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 733,9 | 717,1 | -16,8 |
| **Chaqiq tosh** *ming t.* | 1160,9 | 3813,5 | 2652,7 |
| **Shag’al** *t.* | 12076,2 | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,5 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-dekabr oylarida, % da)**






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 7,8 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 11,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 22,2 % (19,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 28,8 % (32,5 %) va quyi texnologiyalisi – 41,2 % (35,9%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,6 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 13,8 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,5 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –

8,0 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,5%)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15143,9 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 37,3 % ga oshgan), 6,2 ming tonna yog’ miqdori 6% dan ortiq bo'lgan quyultirilgan yoki shirinlanmagan sut va qaymoq (30,0 % ga oshgan), 76,3 mln litr pivo (12,0 %) hamda 6401,1 tonna margarin va yormalar (10,1 % ga oshgan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Tamaki mahsulotlari**




**Paxta kalavasi**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 83,7 | 78,2 | -5,5 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 52,2 | 35,3 | -16,9 |
| **Margarin va yormalar** *tonna.* | 5 811,5 | 6 401,2 | 589,7 |
| **Pivo –** *mln litr* | 68,1 | 76,3 | 8,2 |
| **Traktorlar -** *dona* | 213,0 | 162,0 | -51,0 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 469,0 | 709,1 | 240,1 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar,** t. | 15 285,0 | 15 682,0 | 397,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 1 908,0 | 1 836,1 | -71,9 |

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 162 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,9 % ga kamaygan.

## Toshkent shahrida traktor ishlab chiqarish sanoati,
*yanvar-dekabr oylarida*







## Toshkent shahrida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati
*yanvar-dekabr oylarida, dona*



## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-dekabr)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 37,4% ga ko’paygan bo‘lsa,

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 13,8 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 117,5 % va ishlab chiqarish hajmi 12 249,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 20,7 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3 804,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,2 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 10 768,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 26,3 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 159,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11 475,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 120,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 15,3 % ga ko‘paygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 5069,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




# Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 107,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1577,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi 3,6 % ga ko‘paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 3544,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*







2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 55,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 64,9 martaga ko‘paygan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 312,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*

*FHI % da*






2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 82,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 103,0 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 26 227,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi 100,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3500,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI % da*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-dekabr oylarida*

trln. so‘m







FHI *% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,1 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,9 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,8 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*

2021- y.







2022- y.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 431,6 | 498,4 | 66,8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 13 487,5 | 11 912,8 | -1574,7 |
| **Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar,** *mln so 'm.* | 817,7 | 909,5 | 91,8 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-dekabr oylarida*







Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 151,8 | 164,5 | 12,7 |
| **(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 415,8 | 374,6 | -41,2 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm** | 276,9 | 259,2 | -17,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 9,9 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 6,4 % ga kamaydi, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 8,4 % ga o‘shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 46,4 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,3 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,7 % (2021-yil yanvar-dekabr oylarida 3,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib 15,5 % ni, shuningdek, Bektemir tumani 14,9 % ni, Sirg‘ali tumani 12,7 % ni hamda Chilonzor tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (186,7 %), Yangihayot (160,6 %), Mirzo Ulug‘bek (139,9 %), Shayxontohur (139,2 %), Mirobod (120,3 %), Uchtepa

(114,8 %) tumanlarida hamda Yunusobod tumanida (110,9 %) qayd etildi.

**<u>Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>**

*2022-yilning yanvar-dekabr oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **46 442,6** | **100** | **113,7** |
| **Uchtepa** | **3 253,7** | **7,0** | **114,8** |
| **Bektemir** | **6 907,1** | **14,9** | **186,7** |
| **Yunusobod** | **2 088,5** | **4,5** | **110,9** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **2 588,3** | **5,6** | **139,9** |
| **Mirobod** | **2 894,7** | **6,2** | **120,3** |
| **Shayxontoxur** | **2 082,0** | **4,5** | **139,2** |
| **Olmazor** | **3 881,9** | **8,4** | **96,0** |
| **Sirg’ali** | **5 917,7** | **12,7** | **105,8** |
| **Yakkasaroy** | **2 072,6** | **4,5** | **89,7** |
| **Yashnobod** | **7 197,5** | **15,5** | **87,9** |
| **Yangihayot** | **3 338,6** | **7,2** | **160,6** |
| **Chilonzor** | **4 220,0** | **9,1** | **94,3** |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,5 % shuningdek, Chilonzor 11,4 %, Mirobod tumani 9,9 % ni, Yangihayot tumani 9,7 % ni tashkil etdi.

## <u>Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati</u>

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 25 651,0 | 100 | 105,9 |
| Uchtepa | 2 248,7 | 8,8 | 115,1 |
| Bektemir | 854,1 | 3,3 | 90,1 |
| Yunusobod | 973,9 | 3,8 | 105,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 2 143,7 | 8,4 | 149,5 |
| Mirobod | 2 549,4 | 9,9 | 123,0 |
| Shayxontoxur | 1 678,1 | 6,5 | 148,4 |
| Olmazor | 1 673,9 | 6,5 | 77,8 |
| Sirg'ali | 1 569,7 | 6,1 | 82,5 |
| Yakkasaroy | 1 286,7 | 5,0 | 84,0 |
| Yashnobod | 5 268,0 | 20,5 | 94,8 |
| Yangihayot | 2 482,8 | 9,7 | 174,1 |
| Chilonzor | 2 921,9 | 11,4 | 91,7 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib 31,7 % ni, shuningdek, Sirg'ali tumani 22,1 % ni, Olmazor tumani esa 11,6 % ni tashkil etdi.

# Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 19 066,4 | 100 | 128,8 |
| Uchtepa | 1 005,0 | 5,3 | 114,2 |
| Bektemir | 6 049,3 | 31,7 | 219,9 |
| Yunusobod | 1019,9 | 5,3 | 122,0 |
| Mirzo Ulug’bek | 444,6 | 2,3 | 106,8 |
| Mirobod | 345,4 | 1,8 | 103,4 |
| Shayxontoxur | 314,7 | 1,7 | 114,1 |
| Olmazor | 2 207,9 | 11,6 | 116,8 |
| Sirg’ali | 4 218,3 | 22,1 | 118,2 |
| Yakkasaroy | 785,9 | 4,1 | 101,1 |
| Yashnobod | 521,8 | 2,7 | 45,8 |
| Yangihayot | 855,8 | 4,5 | 131,2 |
| Chilonzor | 1 297,9 | 6,8 | 101,4 |

# Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 107 267,6 | 100,0 | 106,0 |
| Uchtepa | 5 190,4 | 4,8 | 104,2 |
| Bektemir | 9 892,9 | 9,2 | 117,4 |
| Yunusobod | 5 166,0 | 4,8 | 112,4 |
| Mirzo Ulug’bek | 5 717,3 | 5,3 | 102,4 |
| Mirobod | 7 884,1 | 7,3 | 98,3 |
| Shayxontoxur | 6 837,5 | 6,4 | 102,2 |
| Olmazor | 7 948,6 | 7,4 | 102,6 |
| Sirg’ali | 12 233,3 | 11,4 | 106,5 |
| Yakkasaroy | 7 496,6 | 7,0 | 117,2 |
| Yashnobod | 24 511,5 | 22,9 | 101,0 |
| Yangihayot | 4 775,8 | 4,5 | 103,2 |
| Chilonzor | 9 613,6 | 9,0 | 103,7 |

**Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati** *% da*




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Bektemir (186,7 %), Yangihayot (160,6 %), Mirzo Ulug'bek (139,9 %) hamda Shayxontohur tumanlarida (139,2 %) qayd etildi.

## Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng koʻp ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 22,9 % ) hamda Sirgʻali (11,4 %), Bektemir (9,2 %), Chilonzor (9,0 %) va Mirobod (7,3 %) tumanlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Yangihayot tumani (4,5 %), Yunusobod (4,8 %) hamda Mirzo Ulugʻbek (5,3 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (184 921,1 ming soʻm), Yashnobod (86 313,3 ming soʻm) hamda Sirgʻali tumanida (79 254,9 ming soʻm) shaharda oʻrtacha daraja koʻrsatkichidan (6734,7 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Shahar boʻyicha aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming soʻmdan yuqori koʻrsatkich Bektemir tumanida – 129 109,4 ming soʻmni, Sirgʻali tumanida – 38 338,5 ming soʻmni, Yashnobod tumanida – 25 344,8 ming soʻmni, Mirobod tumanida –19 598,7 ming soʻmni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **36 873,8** | **15 964,9** |
| **Uchtepa** | **17 918,5** | **11 232,7** |
| **Bektemir** | **184 921,1** | **129 109,4** |
| **Yunusobod** | **14 233,4** | **5 754,2** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **17 950,2** | **8 126,2** |
| **Mirobod** | **53 379,0** | **19 598,7** |
| **Shayxontohur** | **19 124,0** | **5 823,1** |
| **Olmazor** | **20 369,9** | **9 948,0** |
| **Sirg’ali** | **79 254,9** | **38 338,5** |
| **Yakkasaroy** | **59 758,0** | **16 521,7** |
| **Yashnobod** | **86 313,3** | **25 344,8** |
| **Yangihayot** | **30 620,0** | **21 405,3** |
| **Chilonzor** | **35 708,7** | **15 674,9** |

**<u>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi</u>**

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 38,9 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,7 %),Yangihayot (59,5 %),Yunusobod (54,0 %) hamda Yakkasaroy (47,0 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (18,3 %), Mirobod (28,0 %), Bektemir (29,3 %) hamda Sirg‘ali (30,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 12,7 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,3 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,8 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Shayxontohur tumaniga to'gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shaharda 1564 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 190 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 12,1 %) Olmazor tumanida, 178 tasi (11,4 %) Yunusobod tumanida, 156 tasi (10,0 %) Chilonzor tumanida, 152 tasi (9,7 %) Uchtepa tumanida, 150 tasi (9,6 %) Mirzo Ulug'bek tumanida hamda 145 tasi (9,3 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2134 ta), Chilonzor (2035 ta), Uchtepa (1900 ta), Yunusobod (1 781 ta) hamda Shayxontohur (1 448 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (607 ta), Yangihayot (651 ta), Mirobod (971 ta), Sirg‘ali (1061 ta), Yakkasaroy (1275 ta), Yashnobod (1438 ta), Shayxontohur (1448), Mirzo Ulug‘bek (1478), Yunusobod (1781), Uchtepa (1900) tumanlarida qayd etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 377 ta loyiha bo‘yicha 15 554,3 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, 249,5 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2022-yil yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 1185 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 1,6 martaga oshdi

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

| | 2021-yil yanvar-dekabr | 2022-yil yanvar-dekabr |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlik | 367 | 377 |
| Korxonalar soni, birlik | 109 | 113 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m" | 9 054,9 | 15 554,3 |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar" | 159,1 | 249,5 |
| Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik | 2693 | 1185 |

**Sanoat statistikasi bo‘limi**
*Tel.: (71) 203-88-16*